

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022-yil 1-may holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

4

34572



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

4659



Oilaviy korxonona

197



Unitar korxonona

6151



Xususiy korxonona

48



Aksiyadorlik jamiyati


303



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021 ■ 2022


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-aprel oylarida, birlikda)






Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- may holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,6** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

■ O‘rmon xo‘jaligi

■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)


7



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,2 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



451



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 620




Ishlab chiqarish sanoati

55



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

176




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 9302 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 4,9 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 15,4 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 6,4 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) kamaygan.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




5,4 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



8,1 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **14,3** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 914 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 6,9 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 28,9 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,4 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 0,9 %ga (jami qurilishdagi ulushi 37,6 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 15 313 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 11,2 %ga (jami savdodagi ulushi 67,5 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 21,5 %ga (jami savdodagi ulushi 25,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 15,3 %ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

822



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

28



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

30



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



372

yashash bo'yicha xizmatlar



3 435

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022- yil 1-may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 807 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 %ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 5,4 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 14,8 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,8 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 5130 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 538 taga yoki 11,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 659 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 521 taga yoki 12,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 208 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 132 taga yoki 31,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 37 510 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2673 taga yoki 7,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 34 572 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 546 taga yoki 11,4 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2042 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 365 taga yoki 15,2 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- may holatiga ko'ra, 1 588 tani tashkil etib, ulardan 1 503 tasi yoki 94,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 104 taga yoki 7,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 82 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)



	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonaga	xorijiy korxonaga
Toshkent viloyati	1588	729	859
Oqqo'rg'on t.	21	7	14
Ohangaron t.	87	34	53
Bekobod t.	10	6	4
Bo'stonliq t.	70	36	34
Bo'ka t.	14	5	9
Quyichirchiq t.	55	28	27
Zangiota t.	200	83	117
Yuqorichirchiq t.	120	52	68
Qibray t.	173	77	96
Parkent t.	25	11	14
Piskent t.	25	12	13
O'rta Chirchiq t.	107	40	67
Chinoz t.	29	13	16
Yangiyo'l t.	94	35	59
Toshkent t.	89	50	39
Nurafshon sh.	70	29	41
Olmaliq sh.	54	16	38
Angren sh.	110	74	36
Bekobod sh.	28	18	10
Ohangaron sh.	46	23	23
Chirchiq sh.	95	57	38
Yangiyo'l sh.	66	23	43

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The header features the national emblem, the organization's name in Uzbek and English, and navigation links for RSS, flags, and a personal cabinet. The main navigation bar includes sections like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The central content area shows a dropdown menu for 'Statistik klassifikatsiyalar' with options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonona pasporti'. Below the menu is a form for entering a STIR code, with fields for 'STIR kodini kiriting' and 'Rasmdagi kodni kiriting', and a 'Qidiruv' button. The left sidebar lists 'RASMIY STATISTIKA' services, and the right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' such as population statistics and strategies.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83